

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTRISHINING HUQUQIY ASOSLARI

*Abduolimov Chingiz Nabijon o'g'li
Toshkent davlat transport universiteti
Yurisprudensiya yo'nalishi I – kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston Respublikasida ta'lism sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ya'ni maktab va oliy ta'limga erishilgan yutuqlar hamda amalga oshirilishi kerak bo'lgan jarayonlar to'g'irisida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются реформы, реализованные в сфере образования в Новой Республике Узбекистан, то есть достижения, достигнутые в школьном и высшем образовании, и процессы, которые предстоит реализовать.

Abstract: This article discusses the reforms being implemented in the field of education in the new Republic of Uzbekistan, namely the achievements in school and higher education, and the processes that need to be implemented.

Kirish

Xalqimizda "Ta'lism va tarbiya – beshikdan boshlanadi" degan hikmatli so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga etaklaydi. Shu sababli mamlakatimizda ta'lism sohasidagi davlat siyosati uzlusiz ta'lim tizimi printsipiga asoslangan, bola tug'ilgandan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab – quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzlusiz tizim yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Qonun bilan jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar, o'z navbatida, sohaning huquqiy asoslari takomillashtirilishini talab etadi. 1997 yil 29 – avgustda qabul qilingan "Ta'lism to'g'risida"gi Qonunni o'zgartirish ehtiyoji paydo bo'lgan edi. Yangi tahrirdagi qonun loyihasini takomillashtirish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining mas'ul qo'mitalari hamda ishchi guruhlari tomonidan bir necha bor muhokamalar o'tkazildi. Natijada yangi tahrirdagi "Ta'lism to'g'risida"gi¹ Qonun 2020 yil 23 sentyabr qabul qilindi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limga to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta ahamiyat beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi.

¹ <https://lex.uz/docs/-5013007>

Binobarin, inson kapitaliga e'toborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlar safarbar etilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50 – moddasida “Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzlucksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyaviy rivojlantirish uchun shart – sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiyoq o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziy ta'lim va tarbiya ta'minlanadi”² degan prinsip belgilab qo'yilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi yoshlarning aniq va tabiiy fanlarni amaliyatda qo'llash uchun kerak bo'ladigan tushuncha, bilm va ko'nikmalarni rivojlantirish, ularning kelajakda muhandislik, axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, ilm-fan yo'nalishlarida etuk kadrlar sifatida shakllanishlari uchun maktablarda STEM ta'lim tizimini tatbiq etish bo'yicha 5 yillik dastur ishlab chiqildi. Ushbu dasturni amalga oshirish uchun Osiyo taraqqiyot bankining 100 million AQSh dollarini miqdoridagi mablag'i yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi keng ko'lamdagi demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni **Uchinchi Renessans** poydevorini yaratishni asosiy maqsad qilib belgilandi. Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahon ilm-fan va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shganni barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Farzandlar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Bu yo'nalishni tizimli rivojlantirish bo'yicha aniq davlat dasturlari qabul qilindi. Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2 barobar oshirilib, 80 foizga etkazildi. Bu vazifa nafaqat zamonaviy bog'chalar qurish, balki oilaviy bog'chalar tizimini rivojlantirish orqali ham hal etildi.

O'zbekiston Respublikasida 2022 – 2026 yillar davomida 217 ta “Barkamol avlod” bolalar maktabni rivojlantirish bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda. Bunda o'qituvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli va samarali o'tkazish uchun barcha sharoitlar yaratiladi. O'quvchilarning texnik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maktablarda zamonaviy to'garaklar joriy etiladi, ular zarur jihoz va xomashyolar bilan ta'minlanadi. Buning natijasida 600 ming nafar yoshlarni zamonaviy to'garaklarga jalg qilinadi.

“Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan ulug' g'oya asosida mamlakatimizda maktab ta'limini umummilliy harakatga aylantirish bo'yicha boshlangan ishlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Davlat maktablari bilan birga,

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2023.- 31 – bet.

xususiy mакtablar tashkil etish, bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2030 yilda 60-70 foizga etkazish asosiy vazifa bo'lib, qoladi. Davlatimiz birinchi marta umumta'lim maktablarida "Trabiya" fani joriy etildi. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari sharqona tarbiyaning noyob qo'llanmasi sifatida bugungi kunda ham o'zining qadri va ahmiyatini yo'qotgan emas. Davlatimiz tomonidan mакtab muammosiga birinchi darajali masala, deb e'tiborini qaratib kelmoqda. Mакtab faqatgina ta'lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma'nviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o'rgatuvchi dargohga aylanishi zarur.

Davlatimiz tomonidan faxrli kasb egalari farzandlarimizni ta'lim olishida qolaversa, bilm olishida o'zlarining fidokorona mehnati bilan hissa qo'shib kelayotgan o'qituvchilarining mehnat faoliyati, sha'ni – qadr qimmatini yuksak baholab ilk martoba Konstitutsianing alohida moddasida belgilab qo'yildi. Jumladan, Konstitutsianing 52 – moddasida "O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirishda, sog'lom, barkomol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi"³ deyilgan prinsipda belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha "Biz oliy ta'lim tizimini yangi **sifat bosiqchiga ko'tarish**, oliy o'quv yurtlari tizimini yanda rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, pirovardida ilm-fanning yirik o'choqlariga aylantirishga alohida e'tibor qaratamiz. Aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinganlik drajasi muttasil oshirib boriladi"⁴ deyilgan.

O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida quydagi dasturlar amalga oshirilishi belgilandi. Yangi oliy ta'lim muassasalarini tashkil etishni izchil davom etiriladi. Jumladan, Qorqalpog'istonda mamlakatimizdagи **5 ta nufuzli oliygoҳ va xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etiladi**, shuningdek, **5 ming talabaga mo'ljallangan Nurafshon davlat universiteti tashkil etiladi**, Urganch davlat universiteti qoshida Muhammad Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika markazi va jamg'ramasini tashkil etiladi. Markaz matematika bo'yicha iqtidorli yoshlarni tanlab olish va ilmga yo'naltirish, ularning o'z salohiyatini namyon qilishiga ko'mak berish bilan shug'ullanadi, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Urganch filali uchun qo'shimcha **1000 o'rinli yangi o'quv binosi** quriladi. O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali va uning

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2023.- 32 – bet.

⁴ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: O'zbekiston, 2022.- 228 – bet.

qoshida Urganch boshlang‘ich raqs san’ati maktab – internati tashkil etiladi. Xorzam viloyatida oliygohlar uchun qo‘sishimcha **3,5 ming** o‘rinli 8 ta talabalar turar – joyi bunyod etiladi.

Kadrlar zaxirasini yaratish maqsadida “**ta’lim – ilm – tadqiqot**” tamoyili asosida har bir oliygohning o‘quv dasutlari “yashil” va “raqamli” iqtisodiyotga yo‘natirilish uchun transformatsiya qilinadi. Ushbu tizimning o‘zagi Toshkent shahrida bunyod etilayotgan **Yangi O‘zbekiston universiteti bo’ladi, Samarqand** shahrida 20 ming talabaga mo‘ljallangan “Yoshlar shaharchasi” barpo etilib, unda kamida 4 ta xorijiy universitetning filali va kampuslari joylashtiriladi. Etakchi texnika universitetlari bilan birgalikda Samarqand texnologiya universiteti tashkil etiladi. **Shuningdek, Andijon viloyatida** yana 4 ta xususiy oliygoh tashkil etiladi. Natijada hududdagi oliy ta’lim qamrovi **23 foizdan 50** foizga etadi. **Namanganda kelgusi besh yilda 7 ta** oliygoh tashkil etilib, jami oliy o‘quv yurtlari soni **10** taga etkaziladi. Ibrat ijod maktabi negizida Chet tillar oliygohi tashkil etiladi.

Yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonung 3 – moddasida “Ta’lim kampusi — yagona hududda birlashtirilgan o‘quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiyligida ovqatlanish obyektlarini o‘z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo‘lgan, o‘quv jarayoni, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta’minlaydigan ta’lim-tarbiya muhiti”⁵ ekanligi ta`kidlangan.

Davlatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy – texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi vaqtida mamlakatimizda **300 dan** ortiq ilmiy – tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlari, tajriba – konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy – ishlab chiqarish korxonalari, kichik innovatsion markazlar va boshqa ilmiy – texnikaviy tuzilmalar faoliyat yuritmoqda. Olimlarimiz tomonidan fundamental fan va uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish borasida bir qator yutuqlar qo‘lga kiritildi. Tabiiy fanlarning asosiy sohalari – astronomiya, fizika, matematika, kimyo, biologiya, farmatsevtika, geologiya, seysmologiya va boshqa jabhalarda jahon miqyosida qiziqish uyg‘otayotgan natijalarga erishildi. Iqtisodiyotning mineral xomashyosi resurslarni chiqindisiz va samarali qayta ishslash, quyosh energetikasi va boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, kimyo va biotexnologiya, genetika, ekologiya, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish,

⁵ <https://lex.uz/docs/-5013007>

farmakologiya, taibbiy diagnostika kabi hayotiy muhim tarmoqlarda mahalliy innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy – gumanitar fanlar – tarix, falsafa, huquqshunoslik, arxeologiya, sharqshunoslik, O‘zbekiston xalqlari madaniy merosi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, San’atshunoslik va boshqa sohalarda ham muhim natijalarga erishilmoqda. O‘z sohasida dunyodagi eng muhim natijalarga erishilmoqda. O‘z sohasida dunyodagi eng salmoqli entsiklopediyalardan biri hisoblanadigan Markaziy Osiyoda yagona va **O‘zbekistonda ilk marta yaratilgan “Jahon falsafasi qomusi” tayyorlanib, 2020 yilda chop etildi.**

Oliy ta’lim tizimining vazifasi faqat talabalarga dars berishdan iborat emas. Universitet va institatlarda ilm-fan sohasida ham faol ishlashi, yoshlarni ilmiy ishlarga katta – katta loyihalarga jalb etishi kerak. Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilmlli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Men Yangi O‘zbekistonni – obod va faravon, demokratik mamlakatni, Uchinchi Renessansni barpo etishda pedagoglar, professor – o‘qituvchilar, ijodkor ziyolilarni eng katta kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman. Ularning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatini qo‘llab – quvvatlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoiti yaratib berishni Prezident sifatida o‘z burchim, deb hisoblayman”⁶.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasining uzlusiz ta’lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi yaratilishi va amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Chidan ham, bugun biz ulug‘ niyatlar bilan poydevorini qo‘yayotgan yangi Uyg‘onish davri mamlakatimizda mana shunday ulkan boylik yaratishga, xalqimiz hayotini faravon qilishga va kelgusi avlodlarga o‘zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2023 yil
2. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonunni. Toshkent, 2020 yil 23 – sentyabr.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: O‘zbekiston, 2022.
4. Internet ma’lumoti <https://lex.uz/docs/-5013007>

⁶ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: O‘zbekiston, 2022.- 234 – bet.